

ANTROPOSENTRIK TILSHUNOSLIKNING VUJUDGA KELISH ASOSLARI

Umurqulov Zafar Bekpo'latovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Termiz davlat universiteti
Tel:+998938838487

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikda antroposentrik paradigma g'oyalarining paydo bo'lishi haqida atroflicha fikrlar bildirilgan. Til nafaqat aloqa-aralashuvi vositasi ekanligi, balki olam va undagi mavjudlikni ifodalovchi, shu bilan birga, inson ongida paydo bo'ladigan fikr-mulohazalarni, insonning o'y-fikrlarini, tabiat va jamiyat haqidagi farazlarini, ma'naviyatini, madaniyatini, mentalitetini ham namoyon etuvchi asosiy vosita ekanligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvistika, antroposentrizm, til va inson, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari.

ПРЕДПОСЫЛКИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

Умуркулов Зафар Бекпулатович
Термезский государственный университет
Доктор филологических наук (PhD), доцент

Аннотация. В данной статье содержится подробная информация о появлении идей антропоцентрической парадигмы в языкознании. Так как язык является не только средством общения, но и репрезентирует мир и существование в нем, в то же время в нем отражены мысли, возникающие в сознании человека о природе и обществе, духовности, культуре, менталитете, а также акцентируется внимание на том, что язык является основным средством выразительности.

Ключевые слова: лингвистика, антропоцентризм, язык и человек, современные направления языкознания.

THE EMERGENCE BASIS OF ANTHROPOCENTRIC LINGUISTICS

Umurkulov Zafar Bekpulatovich
Doctor of Philology (PhD), Associate Professor
Termez State University

Abstract. The article contains detailed comments about the emergence of anthropocentric paradigm ideas in linguistics. The fact that, language is not only a means of communication, but also represents the world and existence in it. It is analyzed that language is the main means of expression assumptions about nature and society, it also reflects the opinions that appear in the human mind, human thoughts, spirituality, culture, and mentality.

Key words: linguistics, anthropocentrism, language and human, modern directions of linguistics.

Kirish

Til inson tomonidan yaratilib, insonning olam haqidagi tasavvurlarini, tushunchalarini namoyon etuvchi vosita. Fikrlash insonning olamni idrok etishi va uni ifodalashi bilan bog'liq muhim jarayon sifatida til orqali namoyon bo'ladi va tilning insonlar orasidagi aloqa-aralashuv vositasiga aylantiradi. Til nafaqat aloqa-aralashuvi vositasi, balki insoniyat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarni avloddan avlodga yetkazuvchisi hamdir. Inson tili olam va undagi mavjudlikni ifodalovchi, shu bilan birga inson ongida paydo bo'ladigan fikr-mulohazalarni, insonning o'y-fikrlarini, tabiat va jamiyat haqidagi farazlarini, insonga xos xarakter-xususiyatlarni ham ifodalaydi. Shunga ko'ra, til va uning xususiyatlari tilshunoslar, balki faylasuflar, psixologlar va mantiqshunoslar tomonidan ham tahlil qilib kelinganligi uzoq tarixga ega. Buning muhim sabablaridan biri tilning nafaqat inson olami bilan bog'liqligi, balki dunyoni bilishda, olam haqidagi tasavvurlarni ifodalashda undan foydalanishdir. Ma'lumki, til o'z-o'zidan ushbu holatga kelib qolgan emas. Tilning aloqa-aralashuv vositasi vazifasini bajarishgacha bo'lgan davri insonning fikr ifodalash uchun olib borgan faoliyati bilan bog'liq. Bu jarayon osonlik bilan kechmagan. Ye.N.Panovga ko'ra, "Dastlab odamlar o'z fikrini har bir tashqi olamning predmetlari yoki tushunchalariga mos keladigan kartinalar chizish orqali ifodalashga harakat qilgan[10]. Ye.N.Panov ushbu harakatlar natijasida piktografik yozuv vujudga kelganligiga ham ishora qiladi. Fan, til va ongni aqliy jarayonning muhim bosqichi sifatida e'tirof etadi. Inson tili uning ongli faoliyati, olamni anglashi va idrok etishi asosida ifodalash ehtiyojining vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Ko'rinadiki, inson tilining paydo bo'lishida bilish jarayonining, bilish natijasida olam uzvlarini umumlashtirish va ularni bir-biridan farqlash zarurligi asos bo'lgan. Til va shaxs omilining bog'liqligi tilni falsafa, psixologiya, mantiq, madaniyatshunoslik fanlari bilan bog'liqlikda o'rganilishi lozimligini taqozo etadi. Insonga olamning eng aqlli mavjudodi sifatida qoraladi. Shunday ekan, olamning yangilanib borishi, undagi barcha o'zgarishlar, jamiyat hayotidagi evrilishlar inson omili bilan bog'liq. Inson olamni bilishga qiziqqan va bu qiziqish doimiy ravishda o'sib borgan. Dunyoni

bilish bilanganlar bilan chegaralanib qolmagan. Hamma vaqt ham bilangan narsalar haqida boshqalarga ma'lumot yetkazish ehtiyoji mavjud bo'lgan. Ana shu ehtiyojni qondirish nutqiy faoliyat orqali amalga oshirilgan va tilni vujudga kelishi uchun muhim omil bo'lgan. Idrok etilgan narsalar haqidagi ma'lumotlarni boshqalarga yetkazish oson kechmagan. Ye.N.Panov "Знаки, символы, языки" nomli kitobining so'zboshisida bolaning birinchi so'zi uning ona tilini o'zlashtirishidagi murakkab va uzoq hayotidagi ishonchsiz qadami bo'lib, u orqali inson madaniyatga erishishini ta'kidlab o'tadi[10]. Insonning tilni yaratishidagi birinchi qadamlar bolaning birinchi so'zni aytishi bilan bog'liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Inson ongli faoliyati natijasi asosida tilni yaratgan va shu til orqali o'zini anglatgan. Boshqacha aytganda, insonning olamni bilishi, o'zlashtirishi natijasidagi faoliyatining mahsuli bo'lgan til uni namoyon etish vositasiga aylangan. Insonning mavjudligi til bilan, tilning mavjudligi esa inson bilan bo'lib, bu jarayonning mohiyati nutqiy faoliyatga namoyon bo'ladi.

Asosiy qism

Ulkan so'z sinchisi, professor N.Mahmudov tilni inson shaxsini anglatuvchi bosh omil hisoblaydi, bu bilan insonning inson bo'lishida tilning ta'siri beqiyos ekanligiga ishora qiladi va ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq antroposentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqishini ta'kidlaydi[6]. Tilni va nutqiy faoliyatni atroflicha, turli jihatlarida asosida tadqiq qilish tilshunoslikning turli sohalarini vujudga kelishiga olib keladi.

Olam va odam tizimida dunyoni anglash subyekt va obyekt o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi gnesologiyani o'rganish muammolari hisoblanadi[17]. Gnesologiyani asosiy mezonlari insonning dunyoni bilish va o'zini anglashdir[19]. Bilish jarayonidagi subyekt va obyektning o'zaro munosabati subyektning obyektga emas, balki o'ziga munosabati asosida o'zini anglashga erishiladi. Narsa, hodisalarning mohiyati anglanadi va baho beriladi. Baholash jarayonining tilsiz amalga oshmasligi tilning ontologik va gnesologik tabiatiga ega falsafiy kategoriya ekanligidan dalolat beradi. Ko'rinadiki, tilning falsafiy ontologik va gnesologik tabiatga egaligi inson omili bilan bog'liq bo'lib, til va

inson omili olam manzarasidagi murakkab fenomenlardandir. Professor A.Nurmonovning fikricha, insonni til orqali olamni bilishi tilning obyektiv borliqdagi mavjudlikni nomlashi, til egasining olam haqidagi bilimlarini to'plash kabi vazifalarini bajarishiga olib kelgan[17].

Tilni paydo bo'lishi insonni olamni sezgi a'zolari yordamida anglashi natijasi bilan bog'liq. Ferdinand de Sossyur tilning mohiyati haqida fikr yuritarkan, tilni hosil qiluvchi belgilarni mavhumotlar emas, balki real obyektlar ekanligini ta'kidlab, tilshunoslik ana shunday real obyektlar hamda ularni munosabatlarini o'rganadi deb izohlaydi va real obyektlarni tilshunoslik fanining lisoniy mohiyatlari ekanligini ta'kidlaydi. Voqelikning inson ongida aks etishi, tafakkur orqali ularning ramzlarini paydo bo'lishiga olib kelgan va so'zlar yaratilishiga asos bo'lgan. Real obyektlar, ya'ni olamning manzarasi ontologik jihatdan xarakterdagi mavjudlik obyekti bo'lib, gnesologiya bilish faoliyatining namoyon bo'lishi uchun zamin yaratadi va obyektning subyekt tomonidan anglangan obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham olamning manzarasi bilishning asosi, u inson dunyoqarashining shakllanish jarayonini belgilovchisidir. Olamni anglashda obyekt va subyektning o'zaro munosabati fanda olam manzarasi atamasini paydo bo'lishiga olib keldi. Zero, bilish asosining obyektivlik bilan bog'liqligi ushbu tushunchaning ijtimoiy hayot uchun mohiyat kasb etuvchi fenomenni ifodalashidan kelib chiqqan. Olamning manzarasi atamasi XIX asr oxiri XX boshlarida G.Gers tomonidan ilk bor fizika fanida qo'llanilgan va inson tomonidan anglanishini ifodolovchi tushuncha sifatida ko'pgina ilmiy yo'nalishlar uchun, jumladan, tilshunoslik uchun tekshirish obyektiga aylangan.

Tilshunos Ye.I.Zinovyeva olamning ikki manzarasini farqlash qabul qilinganligini ko'rsatib o'tadi. Olamning konseptual manzarasi va lingvistik manzarasi. Olamning konseptual manzarasi mavjudlikni aql bilan anglanishi orqali aks ettiriladi, lingvistik manzarasi olam haqidagi barcha ma'lumotlarni jonli til vositasida namoyon etadi[3].

Fanda olam manzarasi va uni anglanishiga e'tibor qaratilganining asosiy sababi bilishning asosi bo'lganligi, insonni u bilan bo'lgan munosabati natijasida

bilish faoliyatining shakllanishi, dunyoqarashning rivojlanishi, tasavvur va tafakkur olamining kengayishi uchun moddiy vosita bo'lganligidir. Borliq olamning lisoniy tasviri orqali anglanadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, til nafaqat olamni anglashning vositasi, balki olam haqidagi inson tomonidan to'plangan bilimlarni saqlovchi va asrovchi vosita hamdir. Shuning uchun ham A.Nurmonov tilning gnesologik qimmatini uning akkumulyativ vazifa bajarishi bilan bog'liqligini alohida qayd qilib o'tadi[17].

Tilning mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritar ekan, Ye.N.Panov til simvollarning murakkab yig'indisi bo'lib, har bir simvol tashqi olamning muayyan tushunchalarini ifodalashini qayd etadi. Shu bilan bir bir qatorda, til simvollari til egasining umumiy spetsifik xususiyatlarini, yashash tarzini ham o'zida mujassamlashtiradi, uning mohiyati usiz murakkab ongli faoliyatni vujudga kelmasligi bilan belgilanishida deb izohlaydi[10].

Tilshunoslikda tilga belgilar tizimi sifatida yondashish umumiy tilshunoslik fanining asoschisi F.de Sossyur lingvistik nazariyasida muhim o'rin tutadi. Til boshqa belgilardan lingvistik belgi ekanligi bilan farqlanadi va eng muhim belgi sifatida so'z ajratiladi. F.de Sossyur lisoniy belgini psixik mohiyat hisoblab, narsa bilan uning nomini emas, balki tushuncha va akustik obrazni bog'lashini nazarda tutgan holda tushuncha va akustik obraz bog'lanishini belgi deb ataydi[13]. Belgilar haqida ta'limot XIX asrda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Amerikalik faylasuf Charls Pirs belgilar haqidagi ta'limot – semiotikaga asos solgan. Semiotika belgini uch yo'nalish – semantika, sintaksis va pragmatika yo'nalishlarida tahlil qiladi. Til belgisi o'z ma'nosiga ega bo'lib, uning mazmuni real obyekt orqali ifodalanadi. Masalan, daraxt so'zi obyektiv borliqdagi mavjud mevali va mevasiz daraxtni aks ettiradi va kishi ongida shu ma'nodagi tushunchani vujudga keltiradi. Til belgilari inson faoliyati va tafakkuri asosida til tizimining vositasiga aylanganda ma'noga ega bo'lgan belgiga aylanadi va muayyan obyektning xususiyati haqida ma'lumot beradi.

Y.S.Stepanov belgining o'zi ifodalagan obyektlarga, shuningdek, tildan foydalanuvchilarga munosabati asosida tilning uch o'lchovli tasnifini yaratadi.

Olimning fikricha, belgini o'zi ifodalagan obyektga munosabatini o'rganish semiotikani, bir-biriga bo'lgan munosabati doirasida o'rganish sintaksisning obyekti bo'la oladi. Olim belgining tildan foydalanuvchilarga bo'lgan munosabati asosida tahlil qilishni yangi til falsafasi – paradigmasi deb atab, oldingilar bilan qiyoslaganda ikki radikal farqlanishga ega ekanligini ta'kidlaydi va uning birinchisi sifatida butun tilni undan foydalanuvchi “men” subyekt bilan bog'lanishi ekanligini e'tirof etadi. O'zida “men so'zini aks ettirgan paradigmani ekzotsentrik so'zlar falsafasi”, deb nomlaydi[12].

Tilshunoslikda tilni undan foydalanuvchilar bilan bog'liq ravishda o'rganilishi nafaqat lingvistik semantika masalalarini, balki olam manzaralarini inson tafakkuri orqali tilda aks etishida insonning kognitiv olamining o'rni, insonning psixik holatlarining tilda aks etishi, pragmatik jarayonlar, shuningdek, til va madaniyat aloqadorligi asosida o'rganish g'oyalari antroposentrik paradigmani vujudga kelishiga asos bo'ldi. Tilga antroposentrik nuqtai nazardan yondashish nemis olimi V.Fon Gumboldtning til va ruhiy kuch bir-biridan ajralgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan holda taraqqiy etmaydi. Til xalq ruhining namoyon bo'lishidir. Xalqning tili uning ruhi va xalqning ruhi uning tilidir deyilgan qarashlari bilan bog'liqdir[2]. Antropotsentrik paradigma tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida tilshunoslikning tadqiq maydonini kengaytirdi. Olam manzarasining lingvistik talqin etishni turli usul va yo'llarini belgilab berdi. Tilni antroposentrik tahlil etish natijasida tilshunoslikda tilni etnik munosabatlar asosida o'rganish asosida etnolingvistikani, tilni bilish jarayonining ifodachisi sifatida talqin qilish, til va tafakkur munosabatlari kognitiv tilshunoslikni, tilni madaniyat bilan bog'liq ravishda tahlil qilish lingvokulturologiyani, ijtimoiy hayotdagi o'rnini tahlil qilish asosida lingvopragmatikani va sotsiolingvistikaning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

V.Fon Gumboldt, E.Benvenist, G.Shteyntal, A.Potebnyaning tilni inson olami bilan bog'liq holda tasavvur qilish g'oyalari antroposentrik tilshunoslikning vujudga kelishi uchun asos bo'lgan. Til va inson uyg'unligi masalalari XIX asr tilshunosligining muhim masalalaridan biriga aylandi.

Tilning madaniyat bilan bog'liq va o'zaro aloqadorlikda o'rganilishi V.N.Teliyaning lingvokulturologiya markazida madaniyat fenomeni mavjud bo'lgan inson haqidagi antropologik paradigma[14] to'g'risidagi qarashlari ham tilni antroposentrik nuqtai nazardan o'rganishni yanada kuchaytirdi. V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya insonga mo'ljallangan bo'lib, madaniy faktor tilga, til faktori esa insonga. Bu shuni ko'rsatadiki, antroposentrik paradigma inson haqidagi fan bo'lib, markazida madaniyat fenomeni mavjud[14]. V.N.Teliya madaniyatni tilga tenglashtiradi. Uningcha, madaniyat inson dunyoqarashini aks ettiruvchi bilim shakli[14]. Antroposentrik tilshunoslikning muhim jihatlaridan biri xalq madaniyatining belgisi sifatida talqin qilinishidir. Lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda antroposentrik paradigma inson madaniyati uning tili bilan bog'liqligida o'rganish asosida vujudga kelganligi e'tirof etib kelingan. Xalqning milliy urf-odatlarini, marosimlarini muayyan xalq madaniyatining fenomeni sifatida talqin qilishga alohida ahamiyat berildi. Bularning barchasi insonning tili, madaniyati, hayot tarzi, xususan, o'zi o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligi g'oyasidan kelib chiqqan. Chunki antroposentrik qarashlarga ko'ra til orqali shu tilda so'zlovchi shaxs namoyon bo'ladi.

S.T.Vorkachev o'tgan asrning oxirlarida sistem-struktur va statik paradigma o'rnida antroposentrik paradigma insonga "hamma narsani o'lchovi" statusining berilishi va uni dunyoni bilishning markazida ekanligi asosida maydonga kelganligini ta'kidlar ekan, antroposentrik paradigma bilan bog'liq fanlar sifatida etnolingvistika, psixolingvistika, kognitiv lingvistika, etnopsixologiya fanlarini qayd etib o'tadi[1].

V.A.Maslova antroposentrik paradigma tadqiqotchining obyektini subyekt orqali anglashga, ya'ni insonning tilga, tilni insonga munosabati asosida anglashga bo'lgan qiziqish natijasida vujudga kelganligini qayd etadi. Olimaning fikricha, kognitiv lingvistika, lingvokulturologiya antroposentrizm g'oyalari asosida shakllangan bo'lib, kognitiv tilshunoslik – bu inson aqli orqali informatsiyalarni ishlab chiqish va uni bilish orqali til shakllarida namoyon etishga tayanadigan inson faoliyati haqidagi fan. Lingvokulturologiya esa tilni madaniyat fenomeni

sifatida o'rganuvchi fandır[8]. Maslovaga ko'ra, antroposentrik paradigma nuqtai nazardan inson dunyoni o'zini anglash asosida biladi. Antroposentrik paradigmaning vujudga kelishi lingvistik masalalarni inson va uning madaniyatdagi o'rniga burishga olib keldi[8].

Olimaning e'tiroficha, antroposentrik paradigma insonni birinchi o'ringa qo'yadi, til esa uni muhim jihatlarini xarakterlaydi.

R.R.Yanmurzinaning antroposentrik paradigma haqidagi qarashlari ham V.A.Maslovaning qarashlariga hamohang. U ham obyektни subyekt orqali anglashga bo'lgan qiziqish asosida antroposentrik paradigma vujudga kelgani, uning asosida bir qator, jumladan, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo'nalishlari paydo bo'lganligini e'tirof etadi. R.R.Yanmurzinaga ko'ra, kognitiv lingvistika tilni kodlash va transformatsiyalovchi kognitiv mexanizm sifatida o'rganadi. Lingvokulturologiya esa lingvistika va madaniyatshunoslikning bog'langan nuqtasi til va madaniyat aloqalarini tadqiq qiluvchi sohadir[16].

Insonning kognitiv olami idrok etilgan narsalarni emas, balki ularning mental obrazlarini ham yaratadi va til orqali namoyon etadi. Inson kognitiv faoliyati natijasida bilishi va bilingan olam ichida o'zini anglab, ramzlar bilan ish ko'rishini o'rganish inson va jamiyatni o'rganuvchi boshqa fanlar bilan tilshunoslikni bog'laydi va kognitiv tilshunoslikni yuzaga kelishiga asos bo'ladi[9].

Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya til va inson omili masalalarini tadqiq qilish asosida antroposentrik paradigma doirasida shakllanganligi ko'plab tilshunoslar tomonidan qayd etilib, ularning o'ziga xos yo'nalishlar ekanligining asoslari ko'rsatilgan.

Ye.I.Zinovyeva XIX asrning 30-yillarida birinchilardan bo'lib V.fon Gumboldt til va madaniyatning aloqadorligini aniqlagach, uning til va madaniyatning mustahkam aloqalarini tadqiq qilishga turtki berishi asosida lingvistik nisbiylik nazariyasining vujudga kelishi antroposentrik lingvistikaning paydo bo'lishiga zamin yaratganligini ta'kidlab o'tadi[3].

Ye.I.Zinovyeva til va madaniyatning o‘zaro ta’siri masalalarini tadqiq qilishda antropologik yo‘nalishdagi AQSH tilshunoslarining ham katta o‘rni borligini qayd etadi. XX asrning 30-yillarida B.Uorf, E.Sepir g‘oyalariga asoslangan holda F.Boas, Kerroll va boshqa ko‘pgina tilshunoslar tomonidan ma’qullangan lingvistik determinizm g‘oyasini oldinga suradi. Garchand, bu g‘oya bir qator tilshunoslar tomonidan tanqidga uchragan bo‘lsa-da, Sepir-Uorf nazariyasi ko‘pgina tilshunoslar tomonidan tan olingan.

Ye.I.Zinovyevaning ta’kidlashicha, bu nazariyaning muhim tomoni til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro aloqada va bir-biriga bog‘liq holda o‘rganish masalalasining qo‘yilishidadir[3].

O‘zbek tilshunosligida til tahliliga antroposentrik nuqtai nazardan yondashish prof. N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab...” nomli maqolasi bilan bog‘liq. Olim antroposentrik tilshunoslikning paydo bo‘lishi V.fon Gumboldt g‘oyalariga borib taqalishini e’tirof etar ekan, bu g‘oyalarning kelib chiqishiga asos sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi. “Bugun dunyoda olamni bilishda tilning ustuvor roli, uning real borliq va ongga faol ta’siri, insonning butun ruhiy va bilish faoliyatida bosh omil va asosiy manba ekanligini deyarli e’tirof etilgan, ayni shu haqiqat tilga antroposentrik yondashuvning mustahkam zaminini tashkil etadi[6]. Darhaqiqat, olim ta’kidlab o‘tganidek, real borliqning inson ongida aks etishi, uning fikrlash va nutqiy faoliyatining namoyon bo‘lishi uchun asos bo‘lgan holda til va inson birligini vujudga keltiradi. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida antroposentrik tahlil obyekti kengayib borayotganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Zotan, tilga antroposentrik nuqtai nazardan yondashuv asosida til egasi, ya’ni nutqni yaratuvchi va nutqni qabul qiluvchi shaxs mavjud ekan, tilni inson omili bilan bog‘liq ravishda o‘rganish tilni tadqiq qilishdagi muhim yo‘nalishlardan ekanligi shubhasizdir.

Shu bois, bugungi kun tilshunosligida lingvistik kognitologiya, psixolingvistika, pragmlingvistika, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda antroposentrik yondashuvlar namoyon bo‘lmoqda.

Professor Sh.Safarov tilga antroposentrik yondashuv tilni til egasi bilan bog'liq ravishda o'rganish asosida yuzaga kelganligini e'tirof etadi[11].

O'zbek tilshunosligida antroposentrik tilshunoslik bo'yicha dastlabki monografik tadqiqot olib borgan tadqiqotchi D.Xudoyberganova antroposentrik paradigmani shakllanishi til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liq ekanligini e'tirof etadi[15]. Olima matn maummosini antroposentrik tahlil asosida o'rganar ekan, matnni til va shaxs munosabatini yoritib beruvchi muhim manba sifatida izohlaydi[15]. Matn tahlilida antroposentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning zamonaviy tadqiq yo'nalishlaridan biri ekanligini qayd etgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, matn va uning barcha turi so'zlovchi va tinglovchi munosabatlarining til orqali namoyon bo'lishidir.

Matnni so'zlovchi va tinglovchi shaxs bilan bog'liqligi til va shaxs uyg'unligining vujudga keltirishi ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan qayd etib kelingan[4,5]. Zero, matn fikr ifodalovchi va tinglovchi birligini ko'rsatuvchi jarayon bo'lib, muayyan tilning lingvistik imkoniyatlarini namoyon etuvchi manba sifatida inson va uning nutqiy faoliyatining uzviy bog'liqligi asosida shakllanadi.

Nutqiy faoliyat jarayonida matn yaratuvchisi asosiy omil bo'lib qolmaydi, matnning matn sifatida maqomi uning idrok etilishi bilan bog'liq. Idrok etuvchisiz matn bo'lmaydi, u boshqalar tomonidan idrok etilsa, shunda inson omili asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, matnning yaratuvchisi va uni idrok etuvchi shaxs masalasi antroposentrik tahlilning muhim jihatini tashkil etadi. Shunga asosan D.Xudoyberganova ko'ra, matn talqini va shaxs omili masalasini talqin etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxsni ham o'rganish muhimligini alohida qayd etadi, zero, har qanday matn o'quvchi tomonidan o'qilmaguncha harakatga kelmaydi, undagi mazmun va pragmatik maqsad tushunilmaydi va his etilmaydi[15].

Til va inson omilidagi muhim jihat, shubhasiz, nutqiy faoliyat va uning idroki bilan bog'liq. Nutqning idrok etilishining ham turli holatlari mavjud. Nutqning idrok etilishi so'zlovchi shaxs yonida ikkinchi bir shaxs tinglovchi shaxsi bo'lishini talab qiladi. Matnni idrok etilishida bu ikkala shaxs birligi muhimdir.

Chunki matnda, avvalo, matn yaratuvchisining shaxsi: uning kimligi, qaysi kasb egasi ekanligi, saviyasi, qaysi mazmundagi, qanday shakldagi matn tuzayotgani, til birliklarining nutqiy jarayoniga mosini qo'llashi, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, tafakkur tarzi, tushunchalari, olamni idroki o'z ifodasini topadi. Bu kabi matn uni tuzuvchi bilan saviyasi, tafakkur olami bir xil bo'lmagan shaxsga ham qaratilgan bo'lishi mumkin. Bu holatda uning idrok etilishi til va shaxs munosabatlaridagi muhim omil sanaladi. Shu bois, matn tahliliga turli jihatlardan yondoshish lozim.

Axborotni bayon qilishning muhim qoidalaridan biri, shubhasiz, tinglovchining bayon etilayotgan nutqqa munosabatidir. Shu sabab, nutqni uni yaratuvchisi va idrok etuvchisi birligi asosida tadqiqi antroposentrik qarashlarning asosi hisoblanadi.

Tilshunoslikda lingvokulturologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik antroposentrik paradigmaning muhim yo'nalishlari degan qarashlar mavjud[7,11,15]. D.Xudoyberganova ham psixolingvistika va lingvokulturologiyani antroposentrik tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan hisoblaydi[15]. Shuni alohida qayd etish lozimki, antroposentrik nuqtai nazardan matnga murojaat qilish o'zbek tilshunosligidagi kam o'rganilgan yo'nalishlardan bo'lib, 2000-yillardan keyingi davrlarni antroposentrik tadqiqotlar davri deb atash mumkin. Bu davrda tilni tadqiq qilishdagi yangi g'oyalarni paydo bo'lishi asosida, yangi tadqiqot yo'nalishlari uchun obyektlar mavjudligi aniqlandi. Antroposentrik tilshunoslik tilni tadqiq qilishni shunday usullaridan biri bo'lib, unda tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganish obyekt sifatida belgilangan. Tilni inson bilan bog'liqligi tilda inson olamni bilishi, tafakkur qilishi, matn tuzishda turli psixologik xususiyatlarning namoyon bo'lishi, tilda matn yaratuvchi shaxs madaniyatining namoyon bo'lishi kabi omillar mushtarakligi asos qilib olingan. Ushbu asos antroposentrik tilshunoslikning yo'nalishlari sifatida kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, pragmatolingvistika, sotsiolingvistikani ajratishga olib keldi va bugungi kundagi antroposentrik paradigma asosidagi tilni til egasi bilan bog'liqlikda o'rganilgan barcha tadqiqotlarda bu yo'nalishlar asosiy obyekt sifatida talqin qilib kelinmoqda.

Antroposentrizm tushunchasi nutqiy faoliyat egasi va uni qabul qiluvchitinglovchi munosabatlariga nisbatan kengroq tushuncha. Bayon etilgan nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishi, eshitalishi mohiyatning muhim belgisi bo'la olmaydi. Nutq uni ifoda etuvchi shaxs tomonidan singdirilgan tafakkur tarzi bilan o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda mohiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda prof. N.Mahmudov antroposentrik paradigmani til tadqiqiga nisbatlangan paradigma emas, balki tilning mohiyatiga aloqador hodisa sifatida talqin qiladi[6]. Til va inson birligi asosida tilda muayyan xalqning o'ziga xosligini ifodalanishi, milliy madaniyati, tafakkur olami, psixologiyasi, etnik belgilarining namoyon bo'lishi antroposentrik qarashlarning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Ma'lumki, tilda aks etadigan barcha belgilar insonga xos va inson omili bilan bog'liq. Shunday ekan, til va insonning o'zaro bog'liqligida asosiy omil til yoki uning yaratuvchisi ekanligi masalasi ham muhim va aytish mumkinki, antroposentrik tilshunoslikning tamoyillarini belgilashda ahamiyatga molikdir.

Tilshunos Sh.Maxmaraimovanning ta'kidlashicha, ushbu masalada turli paradigmalar turlicha yondashadi. Sistem-struktur yo'nalishida asosiy e'tibor so'zga qaratilgan. Chunki bu paradigma til tadqiqida narsa, predmetga asoslangani uchun, tadqiq markazida so'z bo'lgan. Antroposentrik paradigmada esa insonga asosiy mezon sifatida qaralgan va til inson omili negizida tekshiriladi[7]. Shuni ta'kidlash lozimki, antroposentrik paradigma o'zbek tilshunosligida tilni tahlil qilishdagi yangi yo'nalish hisoblanadi. Tilni antroposentrik nuqtai nazardan o'rganilgan tadqiqotlar XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Shu yillarda N.Mahmudov, Sh.Safarov, A.Nurmonov, D.Xudoybergonova, Sh.Maxmaraimova kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida antroposentrizmning nazariy masalalari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Sh.Safarov antroposentrik paradigmaning vujudga kelishini sistem-struktur va qiyosiy-tarixiy paradigmalarning tilni o'z egasi – insondan ajralgan holda tadqiq qilishi bilan izohlaydi[11]. Prof. N.Mahmudov olamni inson o'ziga xos nigoh tarzidan kelib chiqib baholaydi va shuning uchun har qanday lingvistik ifodaning asosida inson turadi va uning mohiyatini insondan ajratgan holda izohlash qiyin

ekanligini ta'kidlaydi. Shunday obyektiv xususiyat asosida antroposentrik paradigma vujudga kelganligiga ishora qiladi[6].

Tilshunoslikda antroposentrik paradigma asosida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya kabi yo'nalishlar vujudga kelganligi ko'plab tilshunoslar tomonidan qayd etib o'tilgan. Lingvokulturologiya masalalarining teran tadqiqotchisi Sh.Maxmaraimova ham bu qarashlarni e'tirof etadi. U lingvokulturologiyaning antroposentrik paradigmaning mahsuli ekanligiga alohida urg'u beradi[7].

Buning boisi, tilga uning yaratuvchisining butun borlig'i singdirilganligi bilan belgilanadi. Insonning insonligi nafaqat uni olamni anglashi, tasavvur va tafakkur etish xususiyatlari bilan, balki uning madaniyati, olam manzarasiga munosabati bilan ham belgilanadi. Tilda insonning o'zida mavjud bo'lgan barcha olami aks etadi. Shu boisdan, tilni inson madaniyatidan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Til va madaniyat uyg'unligi haqida fikr yuritish ekan, Sh.Maxmaraimova tilning serqirraligini nazarda tutgan holda shunday yozadi: til o'zi bilan butun olamni namoyon eta oladi, u serqirra madaniyatni, serqatlam jamiyatni leksik-semantik jihatdan qamrab oladi[7].

Til va madaniyat uyg'unligi amerikalik tilshunos E.Sepir tadqiqotlaridagi muhim masalalaridan biri bo'lgan. E.Sepir va B.Uorflar tilning madaniyat mahsuli ekanligini e'tirof etib, unga madaniyatni shakllantiruvchi muhim omil sifatida yondashgan. Amerikalik tilshunoslarning til va madaniyat haqidagi bu qarashlari Sharq olimlarining til va madaniyat haqidagi qarashlari bilan hamohang.

Til va madaniyat masalalarining bog'liqligini chuqur o'rgangan tilshunos V.A.Maslovaning fikricha, til madaniyat bilan mustahkam aloqador. U madaniyatda o'sadi, rivojlanadi va uni ifoda etadi. Tilshunos D.Xudoyberganova ta'kidlaganidek, shaxs omili tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishga olib keladi[15].

Xulosa

Til bilan shaxs omilining bog'liqligi antroposentrik g'oyalarning shakllanishi uchun asos bo'lar ekan, antroposentrik tahlilda til nafaqat

kommunikativ aloqa vositasi sifatida, balki insonning barcha faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinishi lozim bo'ladi. Bugungi kunda ushbu nuqtai nazardan tilning va til vositalarini o'rganilishiga kirishilganligiga ko'p bo'lgani yo'q. Biroq tilni antroposentrik paradigma asosida o'rganishning bir qator masalalari bo'yicha e'tirofga loyiq tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqotlar mazkur yo'nalish bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan kelgusidagi masalalar uchun muhim poydevor bo'lishi shubhasizdir. Til o'zida insonning mohiyatini namoyon etuvchi vosita ekan, tilda inson tafakkurining namoyon bo'lishi, insonning psixik olamining til orqali aks ettirilishi, milliy-madaniy xususiyatlari, mafkurasi, mentaliteti, qadriyatlarining ifodasini ham antroposentrik paradigma asosida o'rganish tilshunoslikning vazifalari sirasiga kiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // филологические науки. – 2001. №1. – С. 64.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С.167.
3. Зиновьева Е.И. Лингвокультурология: от теории к практике. – Санкт Петербург, 2016. – С.6-7.
4. Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения. // язык личность. – М.: Наука, 1989. – С. 4;
5. Кубрякова Е.С. О Текста и критериях его окределения. // Текст. Структура. Семантика. – М.: 2001, Т.I. – С. 76.
6. Махмудов Н. Тилнинг мукамал йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012, №5. – Б.6-7-17.
7. Махмараимова Ш. Лингвокультурология. – Тошкент, 2017. – Б. 16-19.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, Издательский центр, Академия, 2001. – С. 3-4.
9. Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. Таржимон И.Мирзаев. Самарқанд, 2011. – Б. 3.
10. Панов Е.Н. Знаки, символы, языки. Из-дознавание. – М.: 1983. – С. 38-73.
11. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент: ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.– Б. 35.
12. Степанов Ю.С. В трехмерном пространстве языка. Семиотические проблемы лингвистики, философии искусства. – М.: Наука, 1985. – С.216.

13. Соссюр Ф. Умумий тилшунослик курси. Таржимон И.Мирзаев. – Тошкент: Навоий университети, 2019. – Б.118.
14. Теля В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.:1996. – С. 122-222-224.
15. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент: 2015 – Б. 9-10-11-24-25.
16. Янмурзина Р.Р. Когнитивная лингвокулбтурология: черты и различия // филология и искусствоведение. Вестник Башкирского университета. – Уфа, 2014. Т.19. №1. – С. 132.
17. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akadem nashr, 2010. B. – 5-6.
18. Umurkulov Z. B. Lexical means expressing comparison //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 237-240.
19. Shermuhamedova N. Falsafa. Sdris Abdukuat nashr. – Toshkent, 2021. – B. 173.